

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASINING TA’LIM
TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR**

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 - Ta’lim
Ta’lim sohasi: 110 000- Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi: 70110501–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metoikasi (Boshlang‘ich ta’lim)
70111801 – Xorijiy til va adabiyoti: (ingliz tili)

Termiz – 2024 yil

Fan/modul kodi YO'TS1105	O'quv yili 2024-2025	Semestr I-II	Kreditlar 5	
Fan/ modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama
	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar	60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - ilmiy, ta'lim va ma'naviy muassasalar va boshqa tashkilotlarda faoliyat olib boradigan bo'lajak o'qituvchilar, ilmiy xodimlar hamda boshqa soha vakillariga bugungi islohotlar mazmun-mohiyatini, yangilanayotgan O'zbekiston, Taraqqiyot strategiyasi, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, pedagogik kadrlar tayorlash sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar to'g'risida ma'lumotlar berishdan iborat. Fanni vazifasi – Yangilanayotgan O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va xalqaro hamkorlik masalalari, jumladan, ta'lim sohasida olib borilayotgan zgarishlarni talabalarga etkazish orqali yoshlarni har tomonlama etuk, mamlakat taraqqiyotiga dahldorlik ruhida tarbiyalash, mas'uliyatini oshirish, yoshlarda bu davr bo'yicha etarli darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Kirish. Yangilanayotgan O'zbekiston: milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. Mamlakatimizda ilm-fan sohasidagi erishilayotgan yutuqlar, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida olib borilayotgan islohotlar xaqida, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida yoshlarni tashabbuskorlik, fidoyilik hissini hamda axloqiy fazilatlarini shakllantirishning ahamiyati. 2-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonning novator rahbari sifatida. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimidagi faoliyatini boshlanishi (2016), Prezident Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar, 2017-2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining			

mohiyati va ahamiyati, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

3-mavzu. Harakatlar strategiyasi: jadal taraqqiyot va yangilanish modeli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 – yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini xayotga tadbiiq etilishi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish. 2017-2021 – yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan tizimli ishlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etilishi, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faoligini oshirish. Xalq turmush darajasini yanada farovon, mamlakatni yanada qudratli bo'lishi uchun xarakterlar.

4-mavzu. Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari.

O'zbekistondagi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etish, Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy -huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratish. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan 2022-2026 – yillarga mo'ljallangan «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyilini o'rganish. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot ettita ustuvor yo'nalishi: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish. Taraqqiyotning yangi bosqichida Yangi O'zbekiston hukumatining Respublikamizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida amalga oshirayotgan islohotlar strategiyasi mazmuni bilan tanishtirish.

5-mavzu. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish. Mamlakatdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish, norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

6-mavzu. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, qonun ustuvorligi va konstitusiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yaratish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish, faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

7-mavzu. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish. Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish, «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko'tarish, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, suv resurslarini

boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, hududlarning muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish, mahalliy sayyohlar va xorijiy turistlar sonini oshorish, transport tizimini rivojlantirish.

8-mavzu. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet mablag'larining maqsadli hamda samarali sarflanishini ta'minlash, maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqish. Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish, global innovasion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish, aholi ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash, Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

9-mavzu. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, milliy kino san'atini rivojlantirish, O'zbekiston tarixini o'rganish,

targ'ib qilish va tarixiy badiiy asarlar yaratish.

10-mavzu. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish. Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali kambag'allikni qisqartirish, Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migrasiyasini ta'minlash hamda samarali migrasiya siyosatini yuritish, «Vatandoshlar» jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish, pandemiyalarga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish.

11-mavzu. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada kafolatlash, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, qurolli kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorliklarni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish, O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish, Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

12-mavzu. Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans. Yoshlar – kelajak bunyodkori.

"Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans" g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash doirasida zamonaviy targ'ibot mexanizmlarini joriy etish, ma'naviy jihatdan sog'lom axborot makonini shakllantirish, hududlarda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilash, O'zbek davlatchiligini shakllanishi, jamiyatda ilm-fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodlari orqali jahon tamadduni rivojiga qo'shgan hissalarini ko'rsatish va yoshlarda iftixor tuyg'ularini shakllantirish, O'zbekiston tarixining Birinchi Renessans (Somoniyalar) davri, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom

sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'lganligi, Ikkinchi Renessans (Amir Temur va temuriylar) davri, Uchinchi Renesans poydevorini qurish, 2020-yil O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlanganidek "O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda", - degan so'zlarining ma'zmoni. 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi qonun, "Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari". Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

13-mavzu. Ta'lim tizimidagi islohotlar, yutuqlar, muammolar va istiqolli rejalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi asosida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ta'lim tizimidagi islohotlar, yutuqlar, muammolar va istiqbolli rejalar, 2020-yil 23-sentyabrdan kuchga kirgan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun, "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident farmoni, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS xalqaro baholash tizimini xalq ta'limi sohasida qo'llanilishining mazmun-mohiyati.

14-mavzu. Pedagogik kadrlar tayyolash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi masalari.

Mustaqillik yillarida pedagogik kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari, pedagogik kadrlar tayyorlashning jahon andozalari darajasiga olib chiqilishi va bu sohada amalga oshirilgan chora tadbirlar, Jahon standartidagi aniq fanlar sifati va savodxonligini oshirishga qaratilgan PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS tizimini ta'lim tizimiga joriy etish, "Uchinchi renessans" poydevorini yaratishda fan sohasining o'rni, Yangi O'zbekiston g'oyasi asosida mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasidagi islohotlar, ularning natijalari, biznes va tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash borasidagi Prezidentning Farmon va Qarorlari, ularning mazmuni va mohiyati.

15-mavzu. O'zbekistondagi ta'lim jarayonida pedagogika ta'lim muassasalari faoliyati va o'rni.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, Respublikada faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari, ularga berilayotgan imkoniyatlar, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik.

III. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. 2017-2022 – yillarda O'zbekistonda siyosiy islohotlarning boshlanishi hamda demokratik davlat boshqaruvining o'rnatilishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev – novator rahbar sifatida.

3. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.

4. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.

5. O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o'zgarishlar.

6. O'zbekistonda madaniy meros, milliy ma'naviy qadriyat va an'analarning tiklanishi hamda rivojlanishi.

7. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

8. Harakatlar strategiyasi: reja, islohotlar va natijalar.

9. Taraqqiyot strategiyasi – islohotlar va istiqbollari.

10. Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessanas.

11. O'zbekiston Respublikasida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi.

12. Ta'lim sohasidagi halqaro hamkorlik.

13. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi.

14. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar: natijalar va muammolar.

15. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar: natijalar va muammolar.

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasidagi olib borilgan islohotlar va uning istiqbollari.

2. Ta'lim sohasidagi halqaro hamkorlik.

3. Mustaqillik yillarida pedagogik kadrlar tayyorlash, fan va ta'limning integratsion jarayonlari.

4. Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari.

5. Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari.

6. Ma'naviy va ma'rifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish.

7. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish.

8. Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

	<p>9. Global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish.</p> <p>10. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.</p> <p>11. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.</p> <p>12. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.</p> <p>13. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.</p> <p>14. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.</p> <p>15. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish. Mustaqil ta'lim va mustaqil ish topshiriqlari nazariy o'qishning Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzularni talabalar o'qituvchi rahbarligida auditoriyada va auditoriyadan tashqari talaba mustaqil ishi talabidan kelib chiqib taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari (kasbiy kompetentsiyalari)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Magistrantlarga mashg'ulotlar davomida o'zlashtirilgan barcha mavzular bo'yicha topshiriq, mustaqil ishlarni tashkil qilish, o'tqazish va tahlil qilish, ularga doir chuqur va asoslangan ilmiy xulosalar chiqara olishi, mavzularga oid eng so'ngi materiallar asosida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy islohotlar, Xarakterlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, Yangi O'zbekistonning mintaq va jahon hamjamiyatidagi nufuzining yuksalib borishi yuzasidan bilimga ega bo'lishi; (bilim) • O'zbekistonda keyingi yillarda ro'y bergan voqea-xodisalar, islohotlar, ta'lim sohasidagi olib borilayotgan amaliy ishlar va ularning natijalarini, tarixiy ma'lumotlarni tahlil qila bilish, Vatan kelajagi va istiqboliga daxldorlik hissi, hamda vatanparvarlik tuyg'ularini namoyon eta olish ko'nikmalarini hosil qilish; (ko'nikma) • Tarixiy va bugungi kun voqealarni tahlil qila olish, ular bo'yicha hulosalar chiqarish, tarixiy voqealar va xodisalarga, olib borilayotgan islohatlar va ularning natijalariga, ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga nisbatan o'z nuqtai nazariga, mustaqil fikriga ega o'lish hamda ular yuzasidan o'z munosabatini bildira olish, orttirilgan bilim va ko'nikmalarini hayotga tadbiq eta olish, o'z kasbiy faoliyatida qo'llay bilish malakalariga ega bo'lishi lozim; (malaka).
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish;

	<ul style="list-style-type: none"> • individual loyihalar; jamoaga bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII . Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 2. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 48 b. 3. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 4. Sh.M.Mirziyoyev. Mustaqil Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b. 5. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda"/"Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Donyorovning savollariga javoblari. № 165 (421), 2021yil 17-avgust. 6. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022 -416 b <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.- Toshkent, O'zbekiston, 2017.- 48 b. 4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022. -416 b. 5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: O'zbekiston, 2024. - 560 b. 6. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – T., 2000. 7. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at //M.Abdullaev va boshqalar. -

	<p>Toshkent: Sharq, 2006.</p> <p>8. Социальный портрет молодежи Центральной Азии в аспекте обеспечения государственной и региональной безопасности. “Ижтимоий фикр”. Фонд Конрад Аденауер. - Ташкент, 2002.</p> <p>9. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazaeva. - T: 2010.</p> <p>10. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.</p> <p>11. O‘zbekistonda barqaror rivojlanish kontekstida ijtimoiy o‘zgarishlarning istiqbollari. - Toshkent, 2014.</p> <p>12. Новейшая история Центральной Азии: Проблемы теории и методологии: сб. статей /отв. ред. сост. А.К.Аликберов, М.А.Рахимов / Ин-т истории АН РУз. – М.: Институт востоковедения РАН, 2018. 304 с.</p> <p>13. O‘zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. Mas’ul muharrir: A.Sabirov, S.Po‘latova. – Toshkent, 2014.</p> <p>14. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. - Toshkent: Akademiya, 2013.</p> <p>15. O‘zbekistonning eng yangi tarixidan ocherklar: Metodologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari. – Toshkent, 2014. 302 s.</p> <p>16. Raximov M.A. Современные многосторонние отношения в Центральной Азии. Tashkent: Fan, 2020. – 224 s.</p> <p>17. Пономарев М. В., Смирнова С. Ю. Новая и новейшая история стран Европы и Америки. Част 1. Практическое пособие для вузов. - М., 2004.</p> <p>18. Репина Л. П. “Новая историческая наука” и социальная история. Изд. 2-е, испр. и доп. М.: ЛКИ, 2009.</p> <p>19. Trevor Oliver Contemporary world History // New Orleans, LA: White Press Academic, 2018.</p> <p>20. William J. Duiker Contemporary world History // Vancouver B.C.: Langara College, 2018.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <p>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>2. www.ziyonet.uz.</p> <p>3. www.edu.uz</p>
7.	Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ul: Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti t.f.f.d.(PhD) Jumayeva Shohida Choriyevna
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>E.O.Qobilov – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor, tarix fanlari doktori, professor.</p> <p>A.A.Boqiyev – TerDU, “O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik” kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD</p>

